



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 2.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Umarova Zilolaxon Ulmasboyevna

“University of economics and pedagogy” NOTM Maktabgacha va boshlang‘ich
ta‘lim kafedrası assistent-o‘qituvchisi,

Zokirova Gulbahor Haydarali qizi

Pedagogika fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Interfaol ta‘lim usullari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni mustahkamlash va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil ekani asoslanadi. Shuningdek, maqolada interfaol metodlarning turlari, ularning qo‘llash usullari hamda natijadorligi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interfaol yondashuv dars jarayonining qiziqarli va samarali o‘tishini ta‘minlab, o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirishga yordam berishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, ta‘lim samaradorligi, kommunikativ kompetensiya, o‘quv jarayoni, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv.

Bugungi kunda ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, darsliklar va o‘quv dasturlarini o‘zaro uyg‘unlikda ishlab chiqish, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta‘lim jarayonida an‘anaviy usullarning o‘rnini tobora innovatsion pedagogik texnologiyalar egallab bormoqda. Ushbu texnologiyalar ta‘lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nutqiy va mantiqiy tafakkurini shakllantirish, ularning bilim va kompetensiyalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. An‘anaviy o‘qitish metodlarida o‘quvchilarning faqat bilimni eslab qolishi va qayta hikoya qilishi talab etilgan bo‘lsa, interfaol metodlar orqali ular bilimni o‘zlashtirish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qiladilar. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ayniqsa interfaol metodlar, o‘qitish jarayonida keng joriy etilmoqda.

Interfaol metodlar pedagogik texnologiyalarning zamonaviy shakli bo‘lib, o‘quvchilarni dars jarayonida faollikka, mustaqil va ijodiy fikrlashga undaydi. Ushbu metodlarning asosiy mohiyati o‘qituvchi va o‘quvchilar



o'rtasida doimiy hamkorlikni shakllantirish, bilimlarni mustaqil izlash va o'zaro muhokama qilish orqali o'rganishga asoslangan.

Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish quyidagi zaruriyatlarga asoslanadi:

- Til o'rganish jarayonini interfaol shaklda olib borish o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va nutqiy madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi;

- Didaktik tamoyillar asosida faoliyat olib borish o'quvchilarning bilimni nafaqat yodlab olishiga, balki ularni amalda qo'llashiga imkon yaratadi;

- O'quvchilarning mustaqil tafakkurini rivojlantirish – interfaol metodlar orqali o'quvchilar faqat o'qituvchining tayyor bilimlarini qabul qilish emas, balki mavzu yuzasidan o'z qarashlarini shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Interfaol metodlarning turlari juda ko'p bo'lib, ularning aksariyati ona tili darslarida samarali qo'llanilishi mumkin. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan usullar tahlil qilinadi:

“Aqliy hujum” – bu metod o'quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirish va ularga o'z fikrlarini ochiq ifodalash imkonini beradigan muhokama usulidir. O'qituvchi muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha savol tashlaydi, o'quvchilar esa o'z fikrlarini erkin bayon qiladi. Barcha fikrlar yozib olinadi va keyinchalik tahlil qilinadi. Masalan, “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi ahamiyati” mavzusida o'quvchilarga “Davlat tili maqomi nimani anglatadi?” degan savol beriladi. Ular javoblarini erkin ifodalaydi, so'ng guruh bilan tahlil qilinadi. Mazkur metod orqali o'quvchilar erkin fikrlashga o'rganadi, o'z fikrini asoslash va mantiqiy xulosa chiqarish hamda jamoaviy ish olib borish ko'nikmalari rivojlanadi.

“Klaster” metodi – bu grafik organayzer bo'lib, u fikrlarning tarmoqlanishi jarayonini aks ettiradi. Ushbu usul o'quvchilarga muayyan mavzuni chuqur o'zlashtirishga ko'maklashadi, shuningdek, mavzuga tegishli tushunchalarni yoki asosiy fikrlarni erkin va tizimli tarzda bog'langan holda ifodalashga imkon yaratadi.

“Klaster” metodining qo'llanilish tartibi: 1. Fikr yoki so'z xayolga kelishi bilan darhol yozib boriladi. 2. Fikrlar tugaguncha yozish davom ettiriladi. Agar fikr tugasa, yangi fikr paydo bo'lguncha ro'yxat shakllantirib turiladi. 3. Dars davomida imkon qadar fikrlarni o'zaro bog'lash va ularning ketma-ketligini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

Ona tili darslarida ayniqsa “To'plam va tasnif” , “So'z turkumlari” mavzularini o'zlashtirishda ushbu metod katta samaradorlik kasb etadi. Bu usul orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga va mavzuni chuqur anglashga

o'rganadilar. Shuningdek, ular mavzuga oid fikrlarni turkumlarga ajratib, ularni izchil tarzda joylashtirishni o'zlashtiradilar.

Ushbu metod o'quvchilarga mavzularni tizimli va mantiqiy ravishda o'rganish imkonini beradi, tushunchalarni grafik ko'rinishda ifodalash orqali axborotni samarali eslab qolishiga yordam beradi. Shuningdek, analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Muammoli vaziyat" metodi o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli vaziyat yaratib beradi va uni tahlil qilishga undaydi. O'quvchilar muammoga yechim izlab, o'z fikrlarini asoslashga harakat qiladi. Misol uchun "Til va jamiyat" mavzusida o'qituvchi quyidagi vaziyatni beradi: "Agar davlat tilining maqomi yo'qolsa, jamiyatda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin?" O'quvchilar ushbu muammo bo'yicha o'z tahliliy xulosalarini taqdim etadi. Mazkur metod o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, mavzuga ijodiy yondashish va chuqur tahlil qilishga o'rgatadi, o'z fikrini asoslab berish ko'nikmasini shakllantiradi.

"Blits-so'rov" bu metod tezkor savol-javob shaklida o'quvchilarning bilimlarini tekshirish va faollashtirish uchun ishlatiladi. O'qituvchi tezkor savollar beradi, o'quvchilar esa imkon qadar tez va aniq javob berishga harakat qiladi. Bu metodni biror bo'lim yuzasidan mustahkamlash yoki takrorlash darslarida qo'llash samara beradi. Misol uchun, "Morfologiya" bo'limi mavzulari o'tib bo'lingach, mazkur bo'limga oid savollar aralash tarzda beriladi va o'quvchilardan tezkor holatda javob berishlari talab qilinadi. Ushbu metod o'quvchilarning tezkor tafakkurini rivojlantiradi, qisqa va aniq javob berish ko'nikmalarini shakllantiradi, dars davomida barcha o'quvchilarni faol jalb qilish imkonini beradi.

Interfaol metodlar o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va ularga tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini singdirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodlarning samaradorligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishiga yordam beradi - interfaol metodlar orqali o'quvchilar mavzuni o'zlari izlab topish, muhokama qilish va xulosa chiqarishni o'rganadilar;

- analitik va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi - o'quvchilar muammoli vaziyatlar asosida o'z fikrlarini asoslash va himoya qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar;

- nutqiy kompetensiyani shakllantiradi - ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. [2]

- o'quv jarayoniga qiziqishni oshiradi - darslar qiziqarli va samarali bo'lishi sababli o'quvchilar faol ishtirok etadi;

– mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi – o'quvchilar mustaqil ravishda o'rganish va o'z bilimlarini boyitish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa o'rnida, zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish darslarni yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qilishga yordam beradi. Ayniqsa, ona tili darslarida ushbu metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil fikrlash va bilimlarni hayotiy faoliyatga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarning keng qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omillardan biri bo'lib, o'qituvchilarning ijodiy yondashuvi va pedagogik mahoratiga ham bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov Q.M. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
2. Ismatova D. O'zbek tili ta'limida innovatsion metodlarning roli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
3. Karimova N. Interfaol ta'lim metodlari va ularning samaradorligi. – Samarqand: Zarafshon, 2019.
4. Mirzayev S. O'zbek tili darslarida zamonaviy yondashuvlar. – Buxoro: Ilm, 2018.
5. Hasanov A. Interfaol metodlarning o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligiga ta'siri. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020, 3(2), 45-57.
6. Vygotsky, L. S. Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
7. Dewey, J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938